



Toshkent
kimyo-texnologiya
instituti



BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI

10 TENGSIKLIKNI QISQARTIRISH



10.6.10 - Sizning universitetingiz nogironlar uchun yetarli darajada moliyalashtirilgan mexanizmni o'z ichiga olgan oqilona turar joy siyosatini/strategiyasini amalga oshiradimi?





Turar joyida yashaganlik uchun belgilangan to'lovlarni amalga oshirishda institutning quyidagi toifadagi talabalariga imtiyozlar institut Kengashi tomonidan berilishi mumkin:

ko'z kasalliklari bo'yicha 1-2-guruh nogironlari, chin yetim va yetim (otalaridan biri vafot etgan), Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari va kam ta'minlangan talabalarni to'lovdan ozod etish;

umumiy kasalliklar bo'yicha 2-guruh nogironlari, o'z vazifasini namunali bajarib kelayotgan Kengash raisi, qavat sardorlari hamda turar joyi kutubxonasi uchun mas'ul talabalar uchun umumiy to'lovdan 50 foiz chegirish.

Talabalarni turar joylariga joylashtirishda mavjud o'rinlardan ehtiyoj va talab yuqori bo'lgan holatlarda quyidagi mezonlar ketma-ketligi asosida talabalar ustunlikka ega bo'ladi:

- Chin yetim talabalar (kursidan qat'iy nazar);
- "Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilari;
- Nogironligi mavjud talabalar (kursidan qat'iy nazar);
- Ijtimoiy himoyaga muhtoj, moddiy ahvoli og'ir talabalar (shuningdek, bitta oilada 2 yoki undan ortiq shaxs to'lov-shartnoma asosida o'qiyotgan bo'lsa);
- Xorijdan kelib tahsil olayotgan talabalar;
- 1-2 kurs talabalari;
- Talaba qizlar;
- Yoshlar ittifoqining faollari;
- Xalqaro miqyosdagi fan olimpiadalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan talabalar.
- Yozgi ta'til davrida "Fidokor" yoshlar mehnat otryadi tarkibida talabalar turar joylarini ta'mirlashda ishtirok etgan talabalar;
- Talabalar turar joyida doimiy ravishda talabalar kengashi raisi, qavat sardorlari va boshqa jihatlari bilan doimiy ravishda faollik ko'rsatib kelayotgan talabalar. **Bunga Toshkent kimyo texnologiya institutining 2019 yil 8 noyabrdagi 1014-sonli buyrig'i asos bo'ladi.**

<https://tkti.uz/en/talabalar/talabalar-turar-joyi>



Bundan tashqari, turli boshqa bo'limlar imkoniyati cheklangan talabalar uchun ko'maklashuvchi va qulay muhitni yaratish uchun hamkorlik qiladi.

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi: Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi institut jamoasi, ayniqsa talaba-yoshlar o'rtasida milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish orqali inson huquqlari va qadr-qimmatlarini ulug'lashga, jismonan sog'lom, aqlan yetuk, dunyoqarashi teran va mustaqil fikrlovchi barkamol yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan uzoq muddatli, keng ko'lamlı ma'naviy-axloqiy tarbiya dasturini amalga oshiradi.

<https://tkti.uz/uz/institut/structute/department/yoshlar-bilan-ishlash-manaviyat-va-marifat-bolimi>

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Institut boshlang'ich tashkiloti

yetakchisi: Boshlang'ich tashkilotning asosiy maqsadi oliy ta'lim muassasasida talaba-yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni ma'naviy-mafkuraviy dunyoqarashini mustahkamlash, iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy faolligini oshirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, talaba-yoshlar tashabbuslarini amalga oshirishga ko'maklashishdan iborat.

<https://tkti.uz/uz/institut/structute/department/ozbekiston-yoshlar-ittifoqi-institut-boshlangich-tashkiloti-yetakchisi>

Tibbiyot bo'limi: Turli xil tibbiy xizmatlarni taqdim etadi, ayniqsa nogironlar yoki surunkali kasalliklar (yuqumli bo'lmagan holatlar) bo'lgan xodimlar va talabalarga xizmat ko'rsatadi.

<https://tkti.uz/uz/talabalar/tibbiyot-bo-limi>



Toshkent
kimyo-texnologiya
instituti



Talabalarni turar joy bilan taminlash ishlarni muofiqlashtirish bo'limi:

Markaz Davlat oliy ta'lim muassasalarining Talabalar turar joyida, ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarning yashash sharoitini nazorat qilish, muammolarini bartaraf qilish va qulayliklar yaratish, ijtimoiy mezonlar (ijara to'lovining bir qismini birinchi navbatda ijtimoiy muhtoj talabalarni aniqlash va ularning ijtimoiy ustuvorligini belgilashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar), ijara to'lovining bir qismini qoplab berishni belgilaydi.

<https://tkti.uz/uz/institut/structute/department/talabalarni-turar-joy-bilan-taminlash-ishlarni-muofiqlashtirish-bolimi->